

## 2019-yil 1-sentabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 4628 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2298 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5000 ta (27,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 23207 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-sentabr holatiga 23207 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,5 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,6 % savdo, 15,5 % sanoat, 10,8 % qurilish, 10,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,9 % tashish va saqlash, 1,0 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 23,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.09.2019 yil	
	01.09.2018 yil	01.09.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>18207</b>	<b>23207</b>	<b>127,5</b>	<b>100</b>

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1857	2329	125,4	10,0
Sanoat	2584	3599	139,3	15,5
Qurilish	1911	2511	131,4	10,8
Savdo	3912	5474	139,9	23,6
Tashish va saqlash	1164	1375	118,1	5,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1147	1694	147,7	7,3
Axborot va aloqa	218	236	108,3	1,0
Sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	483	561	116,1	2,4
Boshqa turlari	4921	5428	110,1	23,5


Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7 461 ta), G'ijduvon (2 549 ta), Romitan (1 766 ta) va Buxoro (1 726 ta) tumanri hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (439 ta), Olot (740 ta)tumanlari, hamda Kogon shahri (836 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 22073 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4742 ta (27,4 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,4 % savdo, 15,5 % sanoat, 10,8 % qurilish, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,9 % tashish va saqlash, 1,0 % axborot va aloqa, 2,5 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 23,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Buxoro shahri (7 224 ta), G'ijduvon (2 324 ta), Romitan (1 717 ta), Buxoro (1 565 ta) va Jondor (1 496 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (427ta), Olot (645 ta) tumanlari hamda Kogon shahri (816 ta) da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-avgust oylarida 4628 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2298 taga ko'pdir.

### Yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Buxoro shahri (1 477 ta), G'ijduvon (551 ta), Romitan (383 ta) va Jondor (358 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (88 ta), Olot (156 ta), Kogon shahri (179ta), hamda Qorako'l (201 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### 2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 521 ta), sanoat (1 013 ta), qurilish (487 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (427 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (36 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (60 ta), hamda tashish va saqlash (223 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



### Tijorat korxonalarini (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-sentabr holatiga 18762 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3437 ta, oilaviy korxonalar – 1471 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 13507 ta va boshqalar 347 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat  
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyl soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 241 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 113 taga yoki 188,3 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-sentabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 241 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqori Buxoro shahri (131 ta), Kogon (21 ta), Peshku (14 ta) va Kogon sh. (12 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Olot (4 ta), Qorako'l (5 ta) hamda Shofirkon (5 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda**




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 99 tasi qo'shma korxonalar, 142 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




**Tumandlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %**



**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Buxoro viloyati	241	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	4	1,7
Buxoro	12	5,0
Vobkent	6	2,5
G'ijduvon	6	2,5
Kogon	21	8,7
Qorako'l	5	2,1
Qorovulbozor	7	2,9
Peshku	14	5,8
Romitan	8	3,3
Jondor	10	4,1
Shofirkon	5	2,1
Buxoro sh.	131	54,3
Kogon sh.	12	5,0


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy  
kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**



### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 86 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar (47 ta yoki jamidagi ulushi 54,6%), Kogon tumani (8 ta yoki 9,3 %) va Kogon shahri (6 ta yoki 7,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Buxoro, G'ijduvon, Jondor tumanlari (2 ta yoki 2,3 %), Peshku, Shofirkon tumanlari (3 ta yoki 3,5 %) va Olot tumani (4 ta yoki 4,7 %) hissalariga to'g'ri keladi.


### 2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkmaniston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 29 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 12 ta, Turkiya Respublikasi - 10 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 9 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta va Eron Islom Respublikasi – 4 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (27 ta), sanoat (26 ta), qurilish (13 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (10 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta), tashish va saqlashda (3 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (4 ta).


**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



**Kichik korxona va mikrofirmalar  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

2019-yil 1-sentabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 18631 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-sentabr holatiga qaraganda 32,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6323 tasi (33,9 %) Buxoro shahri, 1980 tasi (10,6 %) G'ijduvon, 1479 tasi (7,9 %) Romitan, hamda 1340 tasi (7,2 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
tumanlar kesimida jamidagi ulushi**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 18631 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5139 tasi (27,6 %) - savdo, 3390 tasi (18,2 %) - sanoat, 2373 tasi (12,7 %) - qurilish, 2107 tasi (11,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1601 tasi (8,6 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1294 tasi (7.0%) - tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar sohasi, 209 tasi (1.1%) - axborot va aloqa sohasi, 470 tasi (2.5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 2048 tasi (11,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-avgust oylarida 4458 dan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,2 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahri (1412 ta), G'ijduvon tumani (542 ta), Romitan tumani (368 ta) va Jondor tumani (351 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor tumani (86 ta), Olot tumani (152 ta), Kogon shahar (177 ta), Kogon tumani (193 ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1521 ta), sanoatda (1012 ta), qurilishda (487 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (372 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (36 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (57 ta), hamda tashish va saqlashda (223 ta) tashkil etilgan.


### **Oilaviy korxonalar**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-sentabr holatiga 1554 tani tashkil etib, ulardan 1471 tasi yoki 94,6 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 73,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,5 % yoki 448 tasi sanoat, 30,5 % yoki 449 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,8 % yoki 277 tasi savdo, 9,6 % yoki 141 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 13 tasi tashish va saqlash, 2,0 % yoki 30 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 16 tasi qurilish, 0,6 % yoki 9 tasi axborot va aloqa hamda 6,0 % yoki 88 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>560</b>	<b>100</b>
Olot	22	3,9
Buxoro t.	32	5,7
Vobkent	50	8,9
G'ijduvon	123	22,0
Kogon t.	22	3,9
Qorako'l	23	4,1
Qorovulbozor	4	0,7
Peshku	8	1,4
Romitan	14	2,5
Jondor	33	6,0
Shofirkon	69	12,3
Buxoro sh.	133	2,8
Kogon sh.	27	4,8

2019-yil yanvar-avgust oylarida 560 taga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Buxoro sh. (133 ta), G'ijduvon (123 ta), Shofirkon (69 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (4 ta), Peshku (8 ta), Romitan (14 ta) hamda Vobkent (50 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## 2019-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 35,3 % yoki 198 tasi sanoat, 25,3 % yoki 142 tasi savdo, 26,1 % yoki 146 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 6,3 % yoki 35 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 0,5 % yoki 3 tasi qurilish, 1,3 % yoki 7 tasi sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 5 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 3,8 % yoki 21 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Buxoro viloyati  
Statistik registrlarni yuritish  
Tel.:71-230-83-20 (21)**